

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA TA'LIMIY O'YINLAR HAMDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI

Mirishkor tumani Ayzabot qishlog'i

11-maktabning ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Mamarasulova Sanamoy Kamol qizi

Annotatsiya: Ushbu metodik tavsiyada ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishni pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta'lif samaradorligini oshirish, dars jarayonida ta'limi o'yinlar o'quvchilarni faol ishtirokiga aylanish yo'llari hamda ona tili va adabiyot fanlaridagi muammoli mavzulardan kelib chiqib, bog'liq muammoni ajratib olish orqali yetuk malakaga ega bo'lishlar masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'limi o'yinlar, texnologik xarita, muammoli vaziyat, innovation texnologiyalar, interfaol metodlar.

Dunyoning barcha rivojlanayotgan davlatlari (hatto bir qator rivojlangan davlatlar ham) hozirgi globllashuv vaqtida o'z oldiga hamma bolalarni umumiy o'rta ta'lif jarayoniga to'liq qamrab olish masalasini qo'yan bir vaqtida, mustaqil O'zbekistonimizda ushbu muammo allaqachon muvaffaqiyatli hal etilgan bo'lib, uzluksiz ta'limda masofaviy ta'limi qo'llab, o'quvchilar bilimini baholashda raqamlı texnologiyalardan samarali foydalanmoqda. Bugungi kunda navbatdagi ustuvor vazifa sifatida, sifatli ta'lif-tarbiya berish, ta'lifning samaradorligini oshirish masalasi qo'yildi. Ta'lif jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda oquvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga orgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini ozlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rjanib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda

boshqaruvchilik, yonaltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lif jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun umumta'lim maktablarida zamonaviy oqitish metodlari interaktiv metodlar, innovasion texnologiyalarning orni va roli benihoya kattadir.

Bu metodlarning oziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko`rsatish orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni oziga xos xususiyatlarga ega. Darslarni innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida tashkil etish ijobiy natija beradi, chunki o'qituvchi innovasion faoliyat yuritgandagina ta'lif mazmuni o`zgaradi. O'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda ona tili va adabiyot darslariga interfaol metodlar va ta'limiy oyinlardan foydalanish oquvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan bir qatorda ularni fanga bolgan qiziqishlarini ham orttiradi. Quyida biz ana shunday metodlardan ayrimlari haqida fikr yuritib, ulardan namunalar keltiramiz:

Mashg'ulotni otkazish tartibi muammo ozi nima degan savol asosida mavzuga kirib boriladi. Muammo bilish va bilmaslikning ortasi bolib, bunda muammoning dolzarbliji va oziga xosligi nazarda tutiladi. Bir mavzuga oid qator muammolar olinib, undan eng dolzarblari ajratiladi. Mashg'ulotda oqituvchi ishtirokchilarni guruhlarga ajratib, darsni otkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi. Chunki, ushbu texnologiyani amalga oshirish jarayoni bosqichli ketma-ketlik asosida olib boriladi.

Bugungi rivojlanib borayotgan mustaqil O'zbekistonimizda o'quvchi-yoshlarini ta'limga to'g'ri yo'naltirish juda katta ahamiyatga ega. Zero, yurtimizning kelajagi yoshlarimiz qo'lida. Ma'lumki, o'quvchilarimizning ko'p vaqtлari muktabda o'tadi. Ularning ta'lif olishini to'g'ri tashkil etish esa, biz o'qituvchilarning zimmasidagi yuksak burchdir.

"Yomon o'qituvchi"- gapiradi. "Yaxshi o'qituvchi"- ko'rsatadi. Zamonaviy o'qituvchi esa dars jarayonlarida interfaol metodlardan samarali foydalangan holda o'quvchilar ongidagi bo'shliqni tezda anglab, chora topib, ilm- ma'rifat bilan to'ldiradi.

Xo'sh, interfaol metodlar ta'lifda qanday samara beradi? Keling bu haqida to'xtalib o'tamiz. Interfaol metodlarning juda ko'p turlari mavjud. Masalan: Rolli o'yin, Davra suhbati, Bahs-munozara, Muammoli vaziyatlar, Zanjir, Chala xat, Maktub, Blits so'rov,

Venn diagrammasi, Assisment texnologiyasi, Swot tahlil, Sinkveyn va hokazo. Darsga qo'yiladigan asosiy talablardan yana biri barcha didaktik vazifalar darsning o'zida hal etilishi, uyga beriladigan vazifalar o'quvchilarining darsda olgan bilimlarining mantiqiy davomi bo'lishi kerak, dars davomida o'qituvchi o'quvchilarining jismoniy holatini, ijodkorligini, tez fikrlashlarini hisobga olishi kerak, o'tilgan har bir darsning o'quvchilar bilan birga tahlil qilib borilishi ham yaxshi natija beradi. Biz texnika va texnologiyalar bilan hayotimiz osonlashgan bir davrda yashayapmiz. Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham bir qator innovatsion g'oyalar ta'lim sifatini ko'tarishga safarbar etildi. Yangi darsliklar, ko'rgazma va ko'rsatmali vositalar, elektron kitoblar barchasi yangi davr kishisini shakllantirish va rivojlantirishga qaratildi. Ayniqsa ona tili fanini umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilishiga e'tibor kuchaydi. Ona tilini o'qitishda darslikdagi ma'lumotlarin berish bilangina cheklanish ta'lim sifatini ta'minlab bermay qoldi. Shuning uchun bugungi zamon pedagogi turli xil o'qitish usullari orqali o'quvchini mavzuga jalb etishi va DTsdan ko'zlangan maqsadga yetishi lozim. Ayniqsa 5-sinfda ona tili fanidan Fonetika va Leksikologiya bo'limlarini o'qitishda biroz murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin. Shunda pedagog an'anaviy ta'lim metodlaridan chiqib, noan'anaviy yo'sinda saboqlarni tashkil etishi samarali natija beradi. Bu metodlardan ona tili va adabiyot darslarda foydalanish o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi. O'z vaqtida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samimiy aloqalar o'rnatiladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonlarida turli xil ko'rinishlarda kechadi. (yakka, juft, guruh, katta guruhlarda) namoyon bo'ladi. O'quv jarayoni o'quv ehtiyojini qondirish bilan yuqori mativatsiyaga ega bo'ladi. Axborat berish, olish va qayta ishslash, o'zaro muloqatga kirish, fikr bildirish, fikr almashish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Metodlarimiz o'quv jarayonida qanday tashkil qilinadi?

"Chala xat" -metodidan o'qituvchilarimiz shoir va yozuvchilarimiz hayoti va ijodini, she'r va g'azallarini o'rganishda qo'llash mumkin. Sharti shuki, darsligimizda berilgan matn, g'azal va she'rlarning ba'zi joylarini tushurib qoldirasiz .Metodni qo'llashdan oldin esa mavzuni to'liq o'rganishni o'quvchilarga uy vazifa topshirig'i sifatida berasiz.

“Rolli o’yin”- metodidan adabiyot darslarida yozuvchilarimiz yozgan drammatik asarlarni dars jarayonida sahnalashtiriladi. Buning uchun o’quvchilardan asarni to’liq o’rganib chiqish talab qilinadi. Bu o’quvchilarda aktyorlik mahoratini shaklantiradigan metodlardan biridir.

“Venn diagramma”- bu solishtirma metod . Bu metod orqali yozuvchi va shoirlar hayoti, ular yozgan asarlar solishtiriladi. O’xshash va farqli jihatlari ko’rib chiqiladi. Metodning maqsadi o’quvchilarda topqirlikni , solishtirib o’qish, bilimlarni yanada oshirish kabi ko’nikmalarini shakllantiradi.

“Blits so’rov” metodidan adabiyot darslarda ham ona tili darslarida ham foydalansa bo’ladi.Masalan: Adabiyot darslarida adabiy janrlarni o’qitishda jumladan, ertak, doston, hikoya, qissa, roman va xakazo. Ona tilidan esa, so’z turkumlarining guruhlarini aniqlashda foydalanish mumkin.

“Blits so’rov” metodi o’quvchilar qalbida ona tili va adabiyot yanada chuqurroq o’rganishga undaydi. Bu metodni mavzuni mustahkamlash darslarida foydalansa bo’ladi.

“Zanjir”— metodi esa butun boshli sinf o’quvchilarini darsga jalb etishni ko’zda tutadi. Metodani qo’llashdan oldin indinga o’tiladigan mavzu uy vazifasi sifatida va mavzuda biror bir ma’lumot qolmagan holda o’quvchilarga tarqatma sifatida beriladi.

“Assisment”— metodi o’quvchilarning olgan bilimlarini tez baholash imkonini beradi. Bunda shoir , yozuvchilarning asari yoki she’rlar bitta test , baytining bu metodlar orqali o’quvchilar faqat bilim olib qolmasdan olgan bilimlarini kelajakda qo’llay olish malakasini rivojlantiradi. Hayotga pazitiv nigoh bilan qarashga o’rganadi.

Mustaqil tafakkur yuritish darsi. O’quvchilarga yangi materiallarning ayrim qismlari to’liq beriladi. Beriladigan voqeа-hodisaning kelib chiqish sabablari izlashni o’quvchilarning o’zlari bajarishi kerak. Dars o’quvchilarni material tanlashda uning qiziqarli va maqsadga javob beradigan bo’lishiga erishishi kerak. Muxbirlar darsi. Darslarni o’lkashunoklik materiallari asosida berilgan mashq va topshiriqlar bilan bog’lab o’tish yaxshi samara beradi. Bunda o’qituvchi muxbir o’quvchilarga uy ishlaridan, mavzuga mos savollar berib, javob oladi va muxbir sifatida ularning mehnatinisinf doshlarga maqtov orqali ifodalaydi. Bu dars usuli muxbir bo’lishni

orzu qilgan o'quvchiga topshirilsa, u o'z mahoraratini ishga soladi. Bunday darslarda bolalarda ijodkorlik, tashabbuskorlik hislari uyg'onadi. "Svetafor" ta'limiy o'yini. Bu o'yinda "Fonetika" bo'limi yuzasidan o'tilganlarni takrorlash darvlarida keng foydalaniladi. O'yinga uch xil, ya'ni svetafor rangidagi kartochkalar hamda savollar uchun mashinalarning aplekatsiyasidan foydalanish mumkin. Buning uchun rangli kartochkalar o'quvchilarga tarqatiladi.o'qituvchi savollar yozilgan ko'rgazmani doskaga iladi. Sinf guruhlarga ajratiladi. Guruh a'zolari tartib bilan savollarga javob beradi. Javobni to'g'ri deb hisoblagan o'quvchilar yashil, noto'g'ri deb hisoblaganlar qizil, savolga javob topa olmagan o'quvchilar sariq kartochkani ko'taradilar. Har uchchala guruhga 3 tadan 5 tagacha savol berish mumkin. Har bir sariq kartochkaga bir ball ayirib olinadi. Qizil kartochkada noto'g'ri deb topilgan savolning aniq javobi uchun bir ball qo'yiladi, noto'g'ri javob uchun yarim ball ayirib qolinadi.Masalan, 1-guruhda 30 ball, 2-guruhda 30 ball, 3-guruhda 30 ball bo'lib, birinchi guruh 5 ta sariq kartochka yig'sa, 25 ball qoladi.Qizil kartochka ko'targanlar javobning nima uchun noto'g'riliini izohlab beradilar. Izohlab bera olmasalar yarim ball kamayadi.O'yin oxirida eng faol qatnashgan guruh taqdirlanadi. O'qituvchi o'yin uchun savolni darslikdan kelib chiqqan va bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tuzishi shart. Xulosa qilib aytganda, o'zlashtirilayotgam tajribani to'g'ridan to'g'ri o'quvchilarga o'zaro ta'sir harakati orqali yo'naltirish, interfaol metodlarni qo'llab dars o'tishning asosi bo'lib, bunday yondashuvda o'qituvchi tayyor bilimlarni bermaydi, balki o'quvchilarni mustaqil ishslashga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Tilshunoslik atamalarining izohli lug'ati ". N.Uluqov.Namangan
2. "Darsda hammasi bo`lmasa ham pedagogikaning asosiy qismi markazlashgan".
(Совершенствование процесса обучения. М. 1971. 149)
3. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topshiriqlardan foydalanish.T.:Musiqa. 2009
4. Mahmudov N., va boshqalar. Ona tili (5-sinf uchun darslik).-T.:2007.
5. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar" Toshkent 2013- y.